

“BOBURNOMA” ASARIDA MUSIQAGA OID VOQEALAR*Ochilov Ulug'bek Musurmonqulovich**Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**Tursunova Dilbar Abdurayimovna**Musiqqa ta'limi va san'at mutahassisligi 2 kurs magistranti*

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning musiqa ilmidan savodi borligi haqida. O'sha davrda yashab ijod etgan xonandalar, sozandalar, raqs, she'riyat olamining buyk daholari xususida so'z boradi. Uzoq tarixiy voqeyliklarini o'rganar ekanmiz bunda bizning Mumtoz musiqamizning boy merosi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Musiqa, chorgoh, raqs, qonun, g'ijjak, ud, peshrav, savt, naqsh, nag'ma.

Аннотация: В статье рассказывается о музыкальных познаниях Алишера Навои, рассказывается о великих гениях мира певцов, композиторов, танца и поэзии, живших и творивших в тот период. По мере того, как мы изучаем давние исторические факты, перед нашими глазами раскрывается богатое наследие нашей классической музыки.

Ключевые слова: Музыка, танец, танец, закон, гиджак, уд, пешрав, савт, накш, нагма.

Annotation: The article talks about Alisher Navoi's knowledge of music. It talks about the great geniuses of the world of singers, composers, dance and poetry who lived and created in that period. As we study the long historical facts, the rich heritage of our classical music is revealed before our eyes.

Key words: Music, dance, dance, law, gijjak, ud, peshrav, savt, naqsh, nagma.

Yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas edi, balki musohibi edi, kichikligida hammaktab ekandurlar. Xususiyyat bisyor ekandur. Bilmon, ne jarima bila Sul-ton Abusaid mirzo Hiridin ixroj qildi. Samarqandg'a bordi, necha yilkim, Samarqandda edi, Ahmad Hojibek murabbiy va muqavviysi edi. Alisherbekning mizoji nozuk bila mashhurdir. El nazokatini davlatining g'ururidin tasavvur qilur erdilar. Andoq emas ekandur, bu sifat anga jibilliy ekandur. Samarqandda ekanda ham ushmundoq nozuk mizoj ekandur.

Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r ayubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm



qilibdur, beshi «Xamsa» javobida, yana bir «Mantiqut-tayr» vaznida «Liso-nut-tayr» otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur: «G'aroyibus-sig'ar», «Navodirush-shabob», «Badoynul-vasat», «Favoidul-kibar» otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor. Yana ba'zi musannafoti borkim, bu mazkur bo'lg'onlarga boqa pastroq va sustroq voqe bo'lubtur. Ul jumladin insholarini Mavlono Abdurahmon Jomiyg'a taqlid qilib jam qilibtur. Hosili kalom, har kimga har ish uchun har xatkim bitibtur, yig'ishturubtur. Yana «Mizonul-avzon» otliq aruz bitibtur, bisyor madxuldur: Yigirma to'rt ruboyi vaznida to'rt vaznda g'alat qilibtur. Ba'zi bahurning avzonida ham yangilabtur, aruzg'a mutavajjih bo'lg'on kishiga ma'lum bo'lg'usidur, Forsiy devon ham tartib qilibtur. Forsiy nazmda «Foniy» taxallus qilibtur, ba'zi abyoti yomon emastur, bale aksar sust va furudtur. Yana musiqada yaxshi nimalar bog'labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur.

Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa'y va ehtimoli bila mundoq mashhur va ma'ruf bo'ldilar. Muncha binoyi xayr kim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay.

O'g'ul va qiz va ahlu ayol yo'q, olamni tavre fard va jariyda o'tkardi. Avoyil muhrdor edi, avosit bek bo'lub, necha mahal Astrobodta hukumat qildi, avoxir sipohiliqni tark qildi. Mirzodin nima olmas, balki yilda mirzog'a kulliy mablag'lar peshkash qilur edi. Sulton Husayn mirzo Astrobod cherikidin yong'onda istiqbolg'a keldi, mirzo bila ko'rushub qo'pquncha, bir holati bo'ldi, qo'polmadi, ko'tarib eltdilar. Tabiblar aslo tashxis qila olmadilar. Tonglasig'a-o'q tengri rahmatiga bordi. Bir bayti hasbi hol voqe bo'lubtur:

Bu dard ilaki o'larmen, maraz chu zohir emas,
Tabiblar bu balog'a ne chora qilg'oylar.

Yana Sayid Badr edi. Bisyor zo'r va asru shirin harakot kishi edi, Ajab sohib usul kishi edi. G'arib xo'b raqs qilur edi. G'ayri muqarrar raqs qilur edi. G'olibo ul raqs aning ixtiroidur. Hamisha mirzo mulozamatida bo'lur edi. Doim harifi sharob va hamsuhbati edi.

Yana Binoiy edi, Hiriliktur, otasi ustod Muhammad Sabz banno uchun mundoq taxallus qilibtur. G'azalida rang va hol bordur, devon taptib qilibtur, masnaviylari ham bor. Bir masnaviysi bor, mevalar bobida, mutaqorib bahrida, bemuhassal nima debtur, bekore qilibtur. Yana bir muxtasar masnaviysi bor, xafif bahrida. Yana bir ulug'roq masnzviysi bor, ul ham xafif bahrida, bu masnaviyni so'ngralar tugatnb eli. Burunlar musiqadin bexabar ekandur, bu jihattin Alisherbek ta'n qilur ekandur. Bir yil mirzo

Marvg'a qishlay bog'anda—Alisherbek ham borur. Binoiy Hirida qolur. Ul qish musiqa mashq qilur,yozgacha oncha bo'lurkim, ishlar bog'lar. Yoz mirzo Hiri kelganda savt va naqsh o'tkarur. Alisherbek taajjub qilib tahsin qilur. Musiqada tavr ishlar bog'latur, ul jumladin bir naqshi bor, nuhrangg'a mavsum.Bu to'qquz rangning tuganishi va naqshning maylosi rosttadur.

Ahli nag'madin qonunni Xoja Abdullo Marvoriycha kishi cholmas edi, nechukkim mazkur bo'ldi.

Yana Qul Muxammad Udiy edi, g'ijyakni ham xo'b cholur edi. G'ijjakga bu uch qil taqdi. Ahli nag'madin va ahli sozdin hech kim muncha ko'p va xo'b peshrav bog'lag'on emastur. Peshravdin o'zga ishlarda muncha emastur.

Yana Shayxiy Noyi edi, udni va gijjakni ham xo'b cholur ekandur.O'n ikki-o'n uch yoshidin beri nayni xo'b cholur ekandur. Bir navbat badiuzzamon mirzoning suhbatida bir ishni naydin xo'b chiqarur, Qul Muhammad g'ijjakda ul ishni chiqara olmas. Derkim, g'ijjak noqis sozdur. Shayxiy filhol Qul Muhammadning iligidin g'ijjakni olib,ul ishnn g'ijjakda xo'b va pokiza cholur. Shayxiydin yana bir nima rivoyat qildilar: nag'amotha andoq mustahzor ekandurkim, har nag'makim, eshitsa, der ekandurkim, falonining falon pardasi munga ohangdur, vale xili ish bog'lamaydur. Bir-ikki naqsh andin derlar.

Yana Shohquliy g'ijjakiy edi, Iroqiydur. Xurosong'a kelib soz mashq qilib, taraqqiy qildi. Xili naqsh va peshrav va ishlar bog'labdur.

Yana Husayn Udiy edi. Udni mazaliq cholib, mazaliq nimalar aytur edi. Udning torlarini yakka qilib bu cholibtur. Aybi bu ediki,bisyor noz bila cholur edi. Shayboniyxon bir navbat soz buyurur, takalluf qilib ham yomon cholur, ham o'z sozini kelturmay, yaramas soz kelturur. Shayboniyxon fahmlar. Buyururkim, suhbatda o'q g'alaba gardanilar ururlar. Shayboniyxonning olamda bir yaxshi ishikim bor budur,filvoqi xo'b bordur. Ushmundoq nozuk mardaklarga mundin ko'prak sazo kerak.

Yana musanniflardin G'ulom Shodiy edi, Shodiy xonandaping o'g'li edi, agarchi soz cholur edi, vale bu sozandalar charganida cholmas edi.Yaxshi savtlari va xo'b naqshlari bor. Ul zamona oncha naqsh va savt bog'lar kishi yo'q edi. Oxir Shayboniyxon Qozon xoni Muxammad Aminxong'a yubordi, yana xabari kelmali.Yana Mir Azu edi, bu soz cholmas edi, musapnif edi, agarchi oz ish bog'labtur vale mazaliq ishlari bor.Binoiy ham musannif edi. Yaxshi savt va naqshlarn bordur.

Yana bonazir eldin bir Pahlavon Muhammad Busaid edi. Kushtigirliqta xud saromad edi, she'r ham aytur edi. Savt va naqshlar bog'lar edi: «Chorgoh»da bir yaxshi naqshi bor, xush suhbat kishi edi. Kushtigirliq bila muncha haysiyatni jam qilmoq g'arobati bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boburnoma, T., 1960;
2. Abdurashid Abdug‘afurov. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Azimjonova S, Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii, M., 1977;
4. O‘zbek adabiyoti tarixi, 3j., T., 1978;
5. Axmedov B., Istorikogeograficheskaya literatura Sredney Azii XVI—XVIII vv. (Pismennie pamyatniki), T., 1985;
6. Le Livre de Babur, Parij, 1985;
7. Baburname, T., 1993.
8. Ochilov Ulug'bek Musurmonqulovich “O'zbek xalq milliy o'yinlari-yoshlarni barkamol va sog'lom yetishishida hizmat qiladi” "O'zbekistonda iqtisodiy o'zgarishlar davrida jismoniy tarbiya va ommoviy sportni rivojlantirish tendensiyalari".
9. Ochilov Ulug'bek Musurmonqulovich “Buyuk akbarshohning yoshligi” Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali.
10. Ochilov Ulug'bek Musurmonqulovich “O‘zbek maqomchilik san‘atini tadqiq etish masalalari” Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti jurnali.
11. Ochilov Ulug'bek Musurmonqulovich “Milliy musiqaning Bobiriylar davridagi tiklanishi va rivoj topishi” ”DAVR,ZAMON,SHAXS”.
12. Ochilov Ulug'bek Musurmonqulovich “Musiq va sport” “Yangilanayotgan O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar davrida xalqimiz hayotida jismoniy tarbiya va ommoviy sportni rivojlantirish masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy anjumanida.